

FAN: | Suv resurslaridan mukammal foydalanish.

Mavzu

Daryo havzasining suv xo‘jaligi majmuasi. Suv xo‘jaligi majmuasining qatnashchilarini aniqlashtirish.



Ibrohim Israilov

Amaliy mashg‘ulot



E va SRB kafedrasini assistenti.



Daryo havzasining suv xo'jaligi majmuasi. Suv xo'jaligi majmuasining qatnashchilarini aniqlashtirish.



Reja:

1. Suv xo'jaligi tizimini boshqarish.
2. Suv xo'jalik majmuasini asoslash.
3. Suv manbalarining foydali xossa va xususiyatlari.
4. Suv manbalarining foydali xossa va xususiyatlaridan foydalanadigan tarmoqlar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Valiyev X. I. va boshqalar.

Suv resurslaridan mukammal foydalanish. Toshkent 2008y.

2. Saloxiddinov A.T. va boshqalar.

Suv resurslarini boshqarish. Toshkent 2016 y.

3. Saloxiddinov A.T., Boirov R.Q., Milov K., Taha R., Zigler D.

Suv resurslarini havzaviy boshqarish va rejalashtirish. Toshkent 2020y.

4. Valiyev X.I. Suv resurslaridan mukammal foydalanish fanidan

“Daryo xavzasini suv resurslaridan mukammal foydalanish va muxofaza qilish” shak/loy.sini bajarish buyicha uslubiy ko‘rsatma. TIMI,2012y.

5. Saloxiddinov A.T., Ashirova O.A.

Suv resurslarini havzaviy rejalashtirish va boshqarish. Toshkent 2020y.

6. Valiyev X.I. Suv resurslaridan mukammal foydalanish fanidan

“Suv resurslaridan mukammal foydalanish” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkillashtirish va o‘tkazish buyicha metodik ko‘rsatma. TIMI,2012y.



Suv xo‘jaligi tizimini boshqarishni tashkillashtirishda suv xo‘jalik majmuasini (**SXM**) barpo qilish orqali amalga oshirish kerak.

SXM - mavjud suv resurslari bilan barcha xalq xo‘jalik tarmoqlarini suvga bo‘lgan talabini optimal ravishda qanoatlantirish imkoniyatini beruvchi, suv va suv bilan bog‘liq tabiat resurslaridan oqilona foydalanishni amalga oshiruvchi tadbirlar va inshootlar majmuasidir.

Davlat standarti (*GOST-19185-73*) ga binoan **suv xo‘jalik majmuasi (SXM) qatnashuvchilari** – bir suv havzasining suv resurslarini birgalikda istemol qiluvchi va ulardan foydalanuvchi xalq xo‘jaligining turli tarmoqlaridir.

Majmuani tuzish, ya’ni uni asoslangan tarkibini va qatnashuvchilari sonini tanlash o‘ta murakkab loyihalash oldi masalasidir.

Suv xo‘jalik majmuasini asoslashda o‘zaro bog‘liq uchta asos:

Tabiiy asos

Suv xo‘jalik majmuasini xizmat qilishi va rivojlanishi bilan bog‘lik bo‘lgan asos.

Iqtisodiy asos

barcha suv istemolchilarini manfaatini hisobga olib, iqtisodiy samaradorlikni yuqori darajada bo‘lishini yoki suv kam olinganda bo‘ladigan zararni minimallashtirishdir.

Texnik asos

aniq maxalliy sharoitlarda SXMni harakatini (ishini) ta‘minlovchi inshootlar va tadbirlarni o‘zaro bog‘lik texnik yechimlar tizimini tashkil qiladi.

Suv xo‘jaligi (SX) — davlatning iqtisodiy yo‘nalishi bo‘lib - xalq xo‘jaligining barcha sohalarini doimiy oshib boruvchi suvga bo‘lgan talabini qondirish va u bilan bog‘lik salbiy jarayonlarini bartaraf qilish maqsadlarida suv resurslaridan samarali va mukammal foydalanishni, muhofaza qilish va tiklash, ularni boshqarish, saqlash, iste’molchiga yetkazib berish va tozalash bilan shug‘ullanadi.

Suv xo‘jaligi obyekti — suv resurslarini to‘plash, boshqarish, etkazib berish, ulardan foydalanish, ularni iste’mol qilish, ajratib berish va muhofaza qilish maqsadida suv xo‘jaligi faoliyatida amalga oshiriladigan suv obyekti.

Suv manbalarining foydali xossa va xususiyatlari

1. Suv – **oddiy suv** sifatida aholi suv ta’minoti, sanoat suvi, sug‘orish suvi, yaylov suv ta’minoti kabi talablarni qondirish uchun
2. Suv - **energiya manbai**. Xarakatdagi suv ma’lum gidravlik (oqim) quvvatiga ega, elektr quvvatiga aylantiriladi yoki mexanik ishlarni bajarishda foydalaniladi. Yer osti suvlari esa ma’lum miqdorda issiqlik quvvatiga ega. Oddiy holda har 100 m chuqurlikda harorat 3 °C ga oshishi aniqlangan. Bu tartib magma o‘choqlari yer yuziga yaqin joylashgan maydonlarda buziladi.
3. Suv manbai - suv **akvatoriyasini** bir bo‘lagi sifatida baliqchilik, suv transporti, suv sporti, dam olish maskani.

Suv manbalarining foydali xossa va xususiyatlari

4. Suv manbalari - kishilarni **sog'lomlashtirish**, kasallarni davolash, dam olish vositasi.
5. Suv – bu **ashyo** va ishlab chiqarish vositasi. Ma'lumki, oziq-ovqat va boshqa ko'p turdagi sanoatda suv boshqa ashylar bilan bir qatorda mahsulot ishlab chiqarishda bevosita yoki bilvosita ashyo yoki ishlab chiqarish vositasi sifatida qatnashib, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini belgilaydi.
6. Suv – **ashyo manbai**. Qayd etib o'tilgandek, tabiatdagi suv murakkab kimyoviy eritma bo'lib, uning tarkibiga mavjud kimyoviy elementlarning deyarli hammasi kirishi mumkin.

Suv iste'molchilari deb suvni manbadan olib u yoki bu maskanga keltirib foydalanish jarayonida uning bir qismini o'zlashtirib (bug'lantirib yoki maxsulot tarkibiga o'tkazib) qolgan qismini sifatini o'zgartirib manbaga qaytarib tashlovchi, natijada undagi suvning miqdorini, tartibini va sifatini o'zgartiruvchi iste'molchiga aytiladi.

Suvdan foydalanuvchi deb manbadagi suvdan yo'l-yo'lakay uni sarflamay va sifatiga putr yetkazmay foydalanadi. Natijada suvdan foydalanuvchi uning miqdori, tartibi va sifatini o'zgartirmaydi.

Kommunal xo'jalik, sanoat, sug'orma dexqonchilik, sog'likni saqlash, issiqlik energetikasi kabilar SXMKning **suv iste'molchilari** turkumiga mansubdir.

Fizkultura va sport, suv transporti, baliqchilik kabilari esa **suvdan foydalanuvchilar** bo'ladi.

Suv resurslari cheklangan xududlarda esa bu tushunchalar bir muncha shartlidir.

Suv iste'molchilari deb suvni manbadan olib u yoki bu maskanga keltirib foydalanish jarayonida uning bir qismini o'zlashtirib (bug'lantirib yoki maxsulot tarkibiga o'tkazib) qolgan qismini sifatini o'zgartirib manbaga qaytarib tashlovchi, natijada undagi suvning miqdorini, tartibini va sifatini o'zgartiruvchi iste'molchiga aytiladi.

Suvdan foydalanuvchi deb manbadagi suvdan yo'l-yo'lakay uni sarflamay va sifatiga putr yetkazmay foydalanadi. Natijada suvdan foydalanuvchi uning miqdori, tartibi va sifatini o'zgartirmaydi.


Kommunal xo'jalik, sanoat, sug'orma dexqonchilik, sog'likni saqlash, issiqlik energetikasi kabilar SXMKning **suv iste'molchilari** turkumiga mansubdir.

Fizkultura va sport, suv transporti, baliqchilik kabilari esa **suvdan foydalanuvchilar** bo'ladi.

Suv resurslari cheklangan xududlarda esa bu tushunchalar bir muncha shartlidir.

Suv manbalaridan foydalanadigan iqtisodiyot tarmoqlari

- *Suv ta'minoti*
- *Maishiy ehtiyojlar*
- *Sasnoat*
- *Sug'orish*
- *Energiya*
- *Baliqchilik*
- *Transport*
- *Chorvachilik*
- *Turizm*
- *Sport va boshqalar*



Manbaning u yoki bu foydali xossa va xususiyatidan amalda foydalanuvchi xalq xo'jaligi tarmog'i suv xo'jaligi majmuasi qatnashuvchisi (SXMQ) deyiladi.

Suv manbalarining foydali xossa va xususiyatlaridan foydalanadigan tarmoqlar

1. *Kommunal xo'jalikda* suv ichish, ro'zg'or-xo'jalik ehtiyojlari, suv sepish, uy hayvonlarini, daraxtlarni va o'simliklarni, tomorqa yerlaridagi ekinlarni sug'orish, aholi yashash joyidagi barcha madaniy-oqartuv, tibbiy, maorif, ma'muriy, fizkultura va sport, dam olish, o't o'chirish muassasalarini va tashkilotlarini suv bilan ta'minlash uchun ishlatiladi.
2. *Sanoatda* – ashyo ishlab chiqarish vositasi, gidrotransport, imoratlarni sovutish va isitish, ko'kalamzorlashtirish, ishchilarni suv bilan ta'minlash va shunga o'xshash maqsadlarda.
3. *Qishloq xo'jaligida* – o'simliklarning fiziologik talabini qondirish, sho'r yuvish, chorva va yaylovni suv bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini birlamchi qayta ishlovchi korxonalarini, ustaxona va qishloqlarni suv bilan ta'minlash kabi maqsadlarda.
4. *Energetikada*, gidroelektr stansiyalarni ta'minlash, issiqlik elektrostansiyalarda bug' qozonlarini ta'minlash, stansiya agregatlarini sovutish kabi maqsadlarda.
5. *Baliqchilikda* tabiiy suv manbalari tartibini (rejimini) va sifatini baliqchilik talablariga moslashtirish, sun'iy suv havzalarini suv bilan ta'minlashda.

Suv manbalarining foydali xossa va xususiyatlaridan foydalanadigan tarmoqlar

6. *Suv transporti* vositalarini suv bilan ta'minlash va ularning harakati uchun zarur gidrologik tartibni tashkil qilish maqsadlarida.
7. *Ekologiya va sanitariya* suv manbalari, aholi yashaydigan maskanlar, ishlab chiqarish korxonalarida zarur ekologik tizimni va sanitariya holatini saqlash maqsadida.
8. *Sog'liqni saqlash*-fizioterapevtik shifoxonalar, sanatoriya va kurortlarni shifobaxsh, ichimlik va xo'jalik suvi bilan ta'minlashda.
9. *Ichimlik mineral suvi* quyuvchi korxonalarini mineral suv bilan ta'minlash kabi maqsadlarda.
10. *Dam olish maskanlarini* ichimlik va shifobaxsh mineral suv, cho'milish hovuzlarini suv bilan ta'minlash maqsadlarida.
11. *Fizkultura va sport* hovuzlarini cho'milish va yuvinish, suzish, eshkak tortish turli sport musobaqalarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan suv bilan ta'minlash va hokozolarda.
12. *Yog'och oqizishda* .
13. *O't o'chirishda va boshqalarda*.

E'tibor uchun rahmat!

